

Yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan korxonalar va tashkilotlarda ishlovchi xodimlarning o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi


2021- yil yanvar-sentabr (dastlabki ma'lumot)

Namangan viloyati bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi yanvar-sentabr oylarida 2 271,0 ming so'mni tashkil etdi va buni viloyat hududlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Namangan shahrida **2 781,5 ming so'mni** (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan **122,5 %**) tashkil etgan.

Boshqa hududlarga nisbatan past ko'rsatkich Chust tumanida 1693,2 ming so'mni (74,6 %), Chortoq tumanida 1781,5 ming so'mni (78,4 %), Mingbuloq tumanida 1979,6 ming so'mni (87,2 %), Norin tumanida 1980,3 ming so'mni (87,2 %), tashkil etib, viloyatdagi o'rtacha ish haqiga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda.

Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi, viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan

(2021- yil yanvar-sentabr, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlarisiz, % da)




Hududlar kesimida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi, ming so'm

(qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so'm)


	2020- yil yanvar- sentabr	2021- yil yanvar- sentabr	O'sish sur'ati, %
Namangan viloyati	2030,8	2271,0	111,8
Namangan sh	2453,1	2781,5	113,4
<i>tumanlar:</i>			
Mingbuloq	1638,2	1979,6	120,8
Kosonsoy	1787,4	1721,8	96,3
Namangan	1840,0	2210,0	120,1
Norin	1792,8	1980,3	110,5
Pop	1806,6	1982,4	109,7
To'raqo'rg'on	2107,0	2256,0	107,1
Uychi	1827,9	1921,6	105,1
Uchqo'rg'on	2082,0	2035,4	97,8
Chortoq	1620,2	1781,5	110,0
Chust	1562,8	1693,2	108,3
Yangiqo'rg'on	1976,7	2159,1	109,2

Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi (O'tgan yilning mos davriga nisbatan, %da)



Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2021- yil yanvar-sentabr, viloyat ko'satkichiga nisbatan)



➤ **Sanoatda** o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 2 096,7 ming so'mga to'g'ri keldi va 2020- yilning mos davriga nisbatan 2,0 % ga kamaygan.



Qurilish sohasida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 3 345,5 ming so'mga to'g'ri keldi va 2020- yilning mos davriga nisbatan 27,8 % ga ko'paygan.

➤ **Savdo sohasida** oʻrtacha nominal hisoblangan ish haqi miqdori 2 784,2 ming soʻmni tashkil qildi va 2020- yilning mos davriga nisbatan 39,2 % ga oshdi.



➤ **Tashish va saqlashda** oʻrtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 2 149,1 ming soʻmni tashkil qildi va 2020- yilning mos davriga nisbatan 8,8 % ga kamaygan.

➤ **Axborot va aloqa** sohasida oʻrtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 2 762,7 ming soʻmga toʻgʻri keldi va 2020- yilning mos davriga nisbatan 14,4 % ga oshdi.



➤ **Moliya va sugʻurta** faoliyati sohasida oʻrtacha nominal hisoblangan ish haqi miqdori 5 554,4 ming soʻmni tashkil qildi va 2020- yilning mos davriga nisbatan 31,8 % ga oshdi.

➤ **Ta'lim sohasida** o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 2 232,3 ming so'mni tashkil qildi va 2020- yilning mos davriga nisbatan 16,5 % ga oshdi.




➤ **Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar** sohasidagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 1 827,1 ming so'mga to'g'ri keldi va 2020- yilning mos davriga nisbatan 2,8 % ga oshdi.

Boshqa faoliyat turlari sohasidagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 2 593,6 ming so'mga to'g'ri keldi va 2020- yilning mos davriga nisbatan 16,7 % ga oshdi.



O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi

(2021- yil yanvar-sentabr oylarida qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlarisiz, ming so'm)




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'atlari, % da.

(2021- yil yanvar-sentabr oylarida qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)

Namangan viloyati bo'yicha 2021 - yil yanvar -sentabr oylarida 2020- yilning mos davriga nisbatan iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yuqori o'sish sur'ati savdo sohasida **39,2 %**, qurilish sohasida **37,8 %**, axborot va aloqa sohasida **14,4 %**, Moliya va sug'urta sohasida **31,8 %**, ta'lim sohasida **16,5 %**, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida **2,8 %** kuzatildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2021 - yil yanvar-sentabr oylarida eng yuqori bo'lgan ish haqi, ming so'mda



Ma'lumot uchun: “O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi” ko‘rsatkichi iqtisodiyotda ish haqini baholashning uslubiy qoidalariga va xalqaro tavsiyalarga muvofiq, muayyan vaqt (soat, oy, yil) davomida xodim tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar (bajarilgan ishlar yoki ko‘rsatilgan xizmatlar) evaziga ish beruvchilar tomonidan amaldagi qonun hujjatlariga asoslangan holda, soliq va boshqa to‘lovlarni o‘z ichiga oluvchi yollanma xodimlarning mehnatiga haq to‘lash tarzida jismoniy shaxslarga pul shaklida hisoblangan daromadlardan aniqlanadi.

O‘zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksiga muvofiq, muayyan davr uchun belgilangan mehnat normasini va mehnat vazifalarini to‘liq bajargan xodimning oylik mehnat haqi qonun hujjatlarida Mehnatga haq to‘lash yagona tarif setkasining birinchi razryadi (2021- yil 17– avgustdagi PF-6279-sonli farmoniga asosan 822,000 so‘mni tashkil etgan) bo‘yicha belgilangan miqdordan oz bo‘lishi mumkin emasligi ko‘rsatib o‘tilgan.



Demografiya va mehnat
statistikasi bo‘limi
(71) 211-72-00